

«O'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash» fanidan TEST SAVOLLARI

		1	2	3	4
1.	Savol	O'lchash vositasini qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi deganda nima tushunasiz?			
	Javob	O'lchash vositasini metrologik, texnik, ma'muriy talablarga muvofiqligi	O'lchash vositalarining to'g'ri ishlashi	Xatoligini talab doirasida bo'lishi	Qiyoslash o'tkazish xujjatlari
2.	Savol	O'lchash vositasini metrologik talablari degandan nimani tushunasiz?			
	Javob	O'lchash vositalarining metrologik tavsiflari va ushbu tavsiflar ta'minlanadigan sharoitlar	Metrologik xossasi	Xatoligi	Ishonchiligi
3.	Savol	O'lchash vositasini texnik talablari degandan nimani tushunasiz?			
	Javob	O'lchash vositalarini texnik takomillashtirish imkoniyatlarini cheklanmaydigan asosiy texnik tavsiflari	Bo'zilmay ishlashi	Chidamliligi	Texnik tavsiflari
4.	Savol	O'lchash vositalarini qiyoslash usullari (ularni metrologik va texnik tavsiflariga muvofiqligini aniqlash uchun): qonun hujjatlari talablariga o'lchash vositalarini muvofiqligini belgilash, tasdiqlash yoki bekor qilish mezonlari; o'lchash vositalarini ishlash muddatlarini har xil bosqichlarda ularni qo'llash sharoitlari; o'lchash vositalarini identifikatlashtirish mezonlari va estetik ko'rsatkichlari bu -			
	Javob	ma'muriy talablar	Iqtisodiy talablar	Tashkiliy talablar	Ilmiy talablar
5.	Savol	Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ bu -			
	Javob	O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi	SMSITI	Etalonlar markazi	Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi
6.	Savol	Metrologiya sohasidagi qanday hujjatlar O'zbekiston O'DT me'yoriy hujjatlar majmuiga kiradi?			
	Javob	O'zstandart tomonidan joriy qilingan halqaro, davlatlararo va milliy me'yoriy xujjatlar	Mintaqaviy me'yoriy xujjatlar	Halqaro me'yoriy xujjatlar	sertifikatlar
7.	Savol	"Metrologiya to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?			
	Javob	1993 yil	1990 yil	1980 yil	2000 yil
8.	Savol	Metrologik ta'minot nima?			
	Javob	O'lchashlar biriligin ta'minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo'lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me'yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarining belgilanishi va tadbiiq etilishi	Metrologik ta'minot bu o'lchashlar biriligin ta'minlashdir	Metrologik ta'minot deganda o'lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta'minlash	O'lchash vositalarini me'yoriy asoslarini belgilanishi va tadbiiq etilishi

				tushuniladi	
9.	Savol	O'lchash vositasini belgilangan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologik xizmati idorasi yoki boshqa unga vakolatlangan idora (tashkilotlar) bajaradigan operatsiyalar majmui bu-			
	Javob	o'lchash vositasini qiyoslash	o'lchash vositasini aniqlash	o'lchash vositasini tekshirish	o'lchash vositasini taqqoslash
10.	Savol	Davlat metrologik xizmati idoralari uchun qiyoslash tamg'alarini, rasmlarini va o'lchamlarini, shuningdek, ularni ro'yxatini qiyoslanadigan o'lchash vositalarining ro'yxatiga muvofiqligini qaysi tashkilot ishlab chiqadi va tasdiqlaydi			
	Javob	O'zstandart agentligi	SMSITI	Etalonlar markazi	Sifat markazi
11.	Savol - metrologik jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va o'lchov birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan operatsiyalar majmu			
	Javob	o'lchov vositalarini kalibrlash	O'lchash vositalarini tekshirish	Sinash	Xatoligini aniqlash
12.	Savol	Sanoat korxonalarida davlat nazorati ob'ektlari:			
	Javob	Seriyalab ishlab chiqariladigan va yangitdan o'zlashtiriladigan mahsulot	Seriyalab ishlab chiqariladigan mahsulot	Mahsulot	Ishlab chiqarish jarayoni
13.	Savol	Qiyoslash ishlari qayerda olib boriladi?			
	Javob	maxsus akkreditlangan qiyoslash va kalibrlash laboratoriyasi	Sinov laboratoriyasi	Etalon markazi	Davlat metrologiya xizmati
14.	Savol	Davlat idoralari va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari tarmog'i va ularning o'lchashlar birliligini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati bu			
	Javob	Metrologik xizmat	Metrologik tekshiruv	Kalibrlash	Sinash
15.	Savol	Milliy etalonlar markazi qachon tashkil qilingan			
	Javob	2001 yil	2009 yil	2011 yil	2002 yil
16.	Savol	Davlat nazoratini o'tkazish uchun asosni tekshiruv sub'ektining rahbariga tilxat bilan topshirish mumkinmi?			
	Javob	Mumkin	Ayrim hollarda	Buyruqqa asosan	Mumkin emas
17.	Savol	Muvofiqlashtiruvchi kengash bilan kelishilmasdan turib, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rejadani tashqari davlat nazoratini o'tkazish ruxsat etildimi?			
	Javob	Ruxsat etilmaydi	Ruxsat etiladi	Ayrim hollarda	Rejaga ko'ra
18.	Savol	Me'yoriy xujjatni ilmiy-texnikaviy ekspertizasining mazmuni:			
	Javob	O'z SDT, O'z SMT, O'z O'DT, boshqa tarmoqlararo standartlashtirish tizimlariga muvofiqligi va ilmiy	standartlashtirish tizimlariga muvofiqligi	ilmiy texnikaviy darajasini baholash	sertifikatlashtirish tizimlariga muvofiqligi

		texnikaviy darajasini baholash	gi		
19.	Savol	Mahsulotga ma`muriy-xududiy standartlar davlat ruyxatidan o`tkazilishi kerakmi?			
	Javob	o`tkaziladi, albatta	o`tkazilma ydi	Buyruqqa binoan	Ayrim vaqtlarda
20.	Savol	Mahsulotni me`yoriy xujjatsiz ishlab chiqarish fakti aniqlanganda ko`riladigan choralar qanaqa?			
	Javob	Mahsulotni ishlab chiqarish va realizasiya qilish man etiladi	Mahsulotni ishlab chiqarish man etiladi	realizasiya qilish man etiladi	Ayrim hollarda man etiladi
21.	Savol	Davlat nazoratiga tayyorlanishda tekshirish o`tkazish rejasini kim ishlab chiqadi?			
	Javob	Tekshirish rahbari	SMSITI	Korxonah rahbari	Tegishli muasassa
22.	Savol	Mahsulotga me`yoriy hujjat qanchada tekshiriladi, o`zgartiriladi yoki bekor qilinadi?			
	Javob	Odatda, tasdiqlangan kundan boshlab har besh yilda	Odatda, tasdiqlangan kundan boshlab har bir yilda	Odatda, tasdiqlangan kundan boshlab har ikki yilda	Odatda, tasdiqlangan kundan boshlab har uch yilda
23.	Savol	Tekshirish o`tkazish rejasini tasdiqlovchi lavozimli shaxs?			
	Javob	Sertifikatlashtirish va metrologiya boshqarmasining rahbariyati	Sertifikatlashtirish rahbari	metrologiya boshqarmasining rahbari	SMSITI rahbari
24.	Savol	Qanday xujjat oldin qabul qilinadi – tekshirish o`tkazish rejasi yoki sertifikatlashtirish va metrologiya boshqarmasining buyrug`immi?			
	Javob	Tekshirish o`tkazish to`g`risida buyruq	metrologiyah boshqarmasining buyrug`i	sertifikatlashtirish boshqarmasining buyrug`i	tekshirish o`tkazish rejasi bshyicha
25.	Savol	Asosiy birliklarga nimalar kiradi?			
	Javob	metr, uzunlik, sekund, Amper, Kel`vin, mol`, kandela	vol`t, Om, Genri, sekund, yorug`lik oqimi	Genri, sekund, rad sterad	yuza, vol`t, Om, Amper, Kel`vin, mol`
26.		O`lchash deb nimaga aytiladi?			
		O`lchash deganda shunday aniqlash, anglash jarayoni tushuniladiki, unda biror noma`lum kattalik fizik eksperiment yordamida uning solishtirish asosi uchun qabul qilingan qiymati bilan o`zaro solishtiriladi	Bu fizik eksperimentni o`tkazish jarayonidir	Biror kattalikni son qiymatini aniqlashdir	O`lchash deb shunday jarayonga aytiladiki, unda kattalikni son qiymati topiladi
27.	Savol	Fizik kattalikni berilgan o`lchamini hosil qilish uchun mo`ljallangan o`lchash			

		vositasi nima deb ataladi?			
	Javob	o'lchov	kompleks o'lchash vositasi	o'lchash o'zgartkichi	o'lchash asbobi
28.	Savol	"Mega" qo'shimchasi bu?			
	Javob	106	102	103	104
29.	Savol- sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin bo'lgan moddiy tizim va xossadir.			
	Javob	Kattalik	og'irlik	Kattalikning o'lchamligi	o'lchamsiz kattalik
30.	Savol	Qanday qiyoslash turlari mavjud?			
	Javob	birlamchi, ikkilamchi, davriy, navbatdan tashkari, inspeksion, ekspert	birlamchi, davriy, inspeksion, ekspert, maxkamav	birlamchi, davriy, maxkamaviy, inspeksion, tizimli	birlamchi, davriy, ikkilamchi, ekspert, maxkamaviy
31.	Savol	O'lchash vositalari uchun mo'ljallangan hujjatlarda belgilangan tartibda doimiy			
	Javob	davriy	ekspert	birlamchi	inspeksion
32.	Savol	O'lchash vositasi ishlab chiqarishdan chiqarilganda o'tkaziladigan qiyoslash			
	Javob	birlamchi qiyoslash	keyingi qiyoslash	inspeksion qiyoslash	davriy qiyoslash
33.	Savol	O'lchash vositasining ishonch tamg'asini amal qilish muddatini tekshirish uchun o'tkaziladigan qiyoslash, shuningdek ko'rsatilgan o'lchash vositalari qiyoslash o'tkazilgandan so'ng takomillashtirishga berilmaganligini va ularni xatoligi foydalanish jarayonida yo'l qo'yilgan qiymatdan oshmaganligini tekshirish.			
	Javob	inspeksion qiyoslash	birlamchi qiyoslash	keyingi qiyoslash	davriy qiyoslash
34.	Savol	Etalon nima?			
	Javob	kattalikning o'lchamini hosil qilish, saqlash va ularni boshqa o'lchash vositalariga uzatish uchun xizmat qiladigan hamda fan va texnikaning eng yuqori saviyasida aniqlik bilan ishlangan o'lchovga aytiladi	O'lchashlar sohasidagi mavjud imkoniyat doirasida eng yuqori aniqlikda ishlangan o'lchash vositasidir	O'lchov sifatida milliy metrologiya organi tomonidan tasdiqlangan o'lchash vositasi	Birliklar o'lchamini ishchi o'lchash vositalariga uzatishga mo'ljallangan vosita – etalon deyiladi
35.	Savol	Etalonlarning qanday turlari mavjud?			
	Javob	Davlat etaloni, birlamchi etalon, maxsus etalon, ikkilamchi etalon, nusxa etalon, guvoh etaloni, taqqoslash etaloni, ishchi etalon	Davlat etaloni, maxsus etalon, ikkilamchi etalon	Davlat etaloni, birlamchi etalon, ishchi etalon	Nusxa etalon, taqqoslash etaloni
36.	Savol	Hozirgi kunda respublikamizda nechta milliy boshlang'ich etalon mavjud?			
	Javob	9	12	8	14
37.	Savol	Yig'ma qismlarni va yig'ish sifatini tekshirish uchun buyumni qismlarga ajratish shartmi?			
	Javob	Qismlarga ajratish shart	Shart	Katta	Ayrim vaqtlarda

			emas	yo'qotishlarga olib kelsa	
38.	Savol	Qanaqa qiyoslash sxemalarini bilaziz?			
	Javob	Lokal, qayd qilingan, davlat	Lokal, davlat	Qayd qilingan, davlat	Lokal`
39.	Savol– metrologik tavsiflari me`yorlangan (MTM), o`lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma`lum vaqt oralig`ida o`zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o`lchov birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o`lchashlar uchun mo`ljallangan texnik vosita			
	Javob	O`lchash vositasi	etalon	O`lchov birligi	kattalik
40.	Savol	Qiyoslash laboratoriyalarida me`yoriy sharoit qanday belgilangan?			
	Javob	T= (20± 5) OS , W= 75 - 80 %	T= 25 OS , W= 50 - 80 %	T= 18 - 20 OS , W= 70 - 80 %	T= 20 OS , W= 50 - 80 %
41.	Savol	Qiyoslash va kalibrash tamg`alarini qanday shaxslargina qo`llashi mumkin?			
	Javob	Qiyoslovchi sifatida attestatlangan shaxs	Metrolog	Sifat bo`yicha menejer	muxandis
42.	Savol	Metrologiya xizmat ko`rsatish markazi Davlat korxonasi qachon tashkil topgan?			
	Javob	2002 yil	2004 yil	1991 yil	2009 yil
43.	Savol	Davlat nazorati sub`ektlari dalolatnomani olgandan keyin tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar rejasini Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasiga qanday muddatda beradi?			
	Javob	Besh kundan kechiktirmay	o`n kundan kechiktirmay	O`n besh kundan kechiktirmay	O`n ikki kundan kechiktirmay
44.	Savol	Mahsulotni seriyali ishlab chiqarishga qo`yish to`g`risida qaror qabul qilish uchun qabul komissiyasi tarkibini kim shakillantiradi?			
	Javob	mahsulotni ishlab chiqaruvchi	Metrologiya idorasi	SMSITI	Sertifikatlashtirish idorasi
45.	Savol	O`z T 51-117:2002 «Mashinasozlik kompleksi korxonalarida davlat nazoratini o`tkazish tartibi» tavsiyalari kimga mo`ljallangan?			
	Javob	Sertifikatlashtirish va metrologiya boshqarmasining davlat inspektorlari uchun mo`ljallangan	metrologiya boshqarmasining davlat inspektorlari uchun	Sertifikatlashtirish inspektorlari uchun	Standartlashtirish inspektorlari uchun
46.	Savol	Davlat nazoratini amalga oshirishda oraliq dalolatnomalar, ma`lumotnomalar va boshqa xujjatlarga kim imzo qo`yadi?			
	Javob	Tekshiruv va nazorat sub`ektning maxsus ajratilgan shaxs	Korxonahabari	SMSITIRahbari	Tegishli muassasarahbari
47.	Savol	Namunalarning ikki xissa ortiq miqdorini tekshirish mahsulotning qancha qismiga tegishli?			
	Javob	Tekshiriladigan to`pning hammasiga	Tekshiriladigan to`pning yarmiga	Tekshiriladigan to`pning chorak qismiga	Tekshiriladigan to`pning 60% qismiga
48.	Savol	Mahsulot namunalarini ajratib olishda bir vaqtning o`zida quyidagilar			

		tekshiriladi:			
	Javob	Tovarga qo'shib jo'natiladigan hujjatlarning borligi, o'ramlar, tamg'alar, konservasiya va butligining me'yoriy xujjatlar talabalariga muvofiqligi	Tovarga qo'shib jo'natiladigan hujjatlarning borligi	o'ramlar, tamg'alar, konservasiya	me'yoriy xujjatlar talabalariga muvofiqligi
49.	Savol	Davlat inspektori me'yoriy hujjat talabalarining va metrologik qoidalarining buzilishi muayyan sabablarini aniqlashi lozimmi?			
	Javob	Lozim	Xar doim lozim emas	lozim emas	Ayrim aniqlangan holatlarda
50.	Savol	Davlat nazorati dalolatnomasining nusxasini sertifikatlashtirish va metrologiya boshqarmasida saqlash muddati tugagach, u nima qilinadi?			
	Javob	Arxivga topshiriladi	Utilizatsiya qilinadi	Korxonada saqlanadi	Moderenizatsiya qilinadi
51.	Savol	Laboratoriya sharoitida temperatura, temperatura, havo namligi va tozaligini saqlash uchun qanday vositadan foydalangan muvofiq?			
	Javob	kondisioner	Isitish qurilmalari	ventilyator	sovitish qurilmalari
52.	Savol	Metodik xatolik nima?			
	Javob	O'lchash metodini nazariy jihatdan to'la asoslanmaganligidan yoki noto'g'ri formulalar ishlatishdan hosil bo'ladigan xatolik	O'lchash vositasini noto'g'ri ishlatishdan hosil bo'ladigan xatolik	O'lchash asboblari ba'zi bir konstruktiv yetishmovchilikdan kelib chiqadigan xatolik hisoblanadi	Xatolik kelib chiqishi noma'lum
53.	Savol	O'lchash natijalarini olish uchun o'lchashlar qanday turlarga bo'linadi?			
	Javob	bevosita, bilvosita, metrologik, birgalikda, differensial, taqqoslash, majmuiy	bevosita, bilvosita, metrologik	birgalikda, differensial, taqqoslash,	bevosita, bilvosita, differensial, taqqoslash, majmuiy
54.	Savol	Qiyoslash va kalibrlash tamg'alaridan foydalanish yili o'tgandan so'ng yoki tamg'alanishi lozim bo'lgan o'lchash vositalarini ishlab chiqish to'xtatgandan so'ng, qiyoslash va kalibrlash tamg'alari nima qilinadi?			
	Javob	tamg'alari bekor qilinishi (ulardagi rasmlarni yo'qotish) lozim	O'zaytiriladi	Yangilanadi	Yangi rasmlar qo'yiladi
55.	Savol	Mahsulot seriyali ishlab chiqilganda qanday sinovlar o'tkaziladi?			
	Javob	Qabul qilish, topshirish va davriy sinovlar	Qabul qilish	davriy sinovlar	topshirish sinovlari
56.	Savol	Xo'jalik sub'ektlarida davlat nazoratini amalga oshirish davriyligi qanaqa?			
	Javob	Yiliga ko'pi bilan bir marta	Yiliga ko'pi bilan to'rt marta	Yiliga ko'pi bilan besh marta	Davriylik belgilanmagan

57.	Savol	Rejadan tashqari davlat nazorati nimaga asosan o'tkaziladi?			
	Javob	Maxsus vakolatli idora qaroriga muvofiq o'tkaziladi	Metrologiya boshqarmasi talabi bo'yicha	SMSITI talabi asosida	Sifat markazi talabi bo'yicha
58.	Savol	Qabul sinovlari natijalarining tahlili davlat nazoratida qanday hollarda bajariladi?			
	Javob	Agar mahsulot yangitdan o'zlashtirilgan bo'lsa	O'zstandart agentligi talabi bo'yicha bo'lsa	SMSITI tahlili bo'yicha	Mahsulot keng assortiment bo'yicha bo'lsa
59.	Savol	Tekshirishlarni qayd qilish kitobida «Tekshirish boshlanishi va oxiri sanasi va vaqti» grafasini kim to'latadi?			
	Javob	Davlat nazorati sub'ekti	O'zstandart agentligi	O'zstandart agentligi va SMSITI	SMSITI
60.	Savol- operatsiyalar va qoidalar majmui bo'lib, ularning bajarilishi xatolari ma'lum bo'lgan o'lchov natijalari olishni ta'minlaydi?			
	Javob	o'lchovlarning bajarilish uslubiyoti	Tekshirish	Xatoligini aniqlash	O'lchash vositalarini ta'mirlash
61.	Savol	Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tarqatilish doirasida qo'llanadigan o'lchash vositalari majburiy			
	Javob	qiyoslanadi	Kalibrlandi	Xatoligi aniqlanadi	Tekshiriladi
62.	Savol	Korxonaning realizatsiya qilinadigan mahsulotiga standartlari davlat ro'yxatidan o'tkaziladimi?			
	Javob	O'tkaziladi	O'tkazilmaydi	Ayrim hollarda	Qisman o'tkaziladi
63.	Savol	Tekshirish rahbari tekshirish va nazorat sub'ektining tegishli bo'limlari va xizmatlariga korxonaning ishini tavsiflovchi ma'lumotnomalarni tayyorlash to'g'risida topshiriqni kim orqali beradi?			
	Javob	Korxonaning maxsus ajratilgan mas'ul vakili orqali beradi	Ishchixodimlar orqali	Korxonarahbari orqali	O'zi beradi
64.		Mahsulot namunalarini tekshirish uchun qanday miqdorda ajratib olinadi?			
		Me'yoriy xujjatda ko'rsatilgan miqdorda	Ixtiyoriy ravishda	Mahsulot turiga qarab turlicha	Mahsulot miqdoriga qarab turlicha
65.	Savol	Mahsulotning namunalari organoleptik tekshirish uchun qanday miqdorda ajratib olinadi?			
	Javob	Tekshiriladigan to'pdan kamida 10% miqdorda	Tekshiriladigan to'pdan kamida 50% miqdorda	Tekshiriladigan to'pdan kamida 20% miqdorda	Tekshiriladigan to'pdan kamida 30% miqdorda
66.	Savol	Tekshirish salbiy natija berganda qanday hollarda ikki xissa ko'p kichik namuna			

		ajratib olinadi?			
	Javob	Agar bu me`yoriy xujjatda nazarda tutilgan bo`lsa	Korxonaya buyrug`iga ko`ra	Ba`zi hollarda	Tekshirish natijalariga ko`ra
67.	Savol	Tekshirish va yoki tahlilni chet sinash laboratoriyalarida o`tkazish ruxsat etiladimi?			
	Javob	Faqat akkreditlangan sinash laboratoriyalarida ruxsat etiladi	sinash laboratoriyalarida	Maxsus laboratoriyalarda	Tajriba institutlarida
68.	Savol	Namunalarni ajratib olish dalolatnomasiga kim imzo qo`yadi?			
	Javob	Davlat inspektori va davlat nazorati sub`ektining vakili	O`zstandart agentligi inspektori	Davlat tekshiruvi sub`ekti	Arizasi dalolatnomaga imzo qo`yyadi
69.	Savol	Absolyut xatolik formulasini toping			
	Javob	$\Delta = A_x - A_0$	$\Delta = A_0 - A_x$	$\Delta = A - B_x$	$\Delta = A_0 - C_x$
70.	Savol	O`lchash vositalarining metrologik tavsiflari, sozligi yoki ishlatishga yaroqliligi bo`yicha yuzaga kelgan munozarali savollar bo`lganda qanday qiyoslash o`tkaziladi?			
	Javob	ekspert	davriy	birlamchi	inspeksion
71.	Savol	Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining ob`ektlari qaysi javobda ko`rsatilgan			
	Javob	etalonlar, o`lchash vositalari, modda va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari, o`lchash tizimlari, ularning bajarish uslubiyatlari	O`lchovlar, asboblalar	Maxsulotlar, jarayonlar, xizmatlar	Metrologik xususiyatlar
72.	Savol	O`lchashlar biriliginu ta`minlash va standartlash bo`yicha davlat nazorati va tekshiruvi ob`ektlari qaysilar?			
	Javob	Me`yoriy hujjatlar, shu jumladan mahsulotga majburiy talabalarni o`rnatadigan me`yoriy xujjat, mahsulot	Biror tashkilot qarori	Standart va me`yoriy xujjatlar	Standartlar
73.	Savol	Ob`ektiv metodlar bilan va organoleptik tekshirishda quyidagilar tekshiriladi:			
	Javob	Mahsulotning barcha ko`rsatkichlar bo`yicha me`yoriy xujjatga muvofiqligi	Mahsulotning ayrim ko`rsatkichlar bo`yicha me`yoriy xujjatga muvofiqligi	Bunday tekshirishlar qo`llanilmaydi	Ba`zi holatlarda tekshirishlar qo`llaniladi
74.	Savol	O`lchash turlarini ko`rsating			
	Javob	bevosita, bilvosita, mutlaq, nisbiy, majmuiy, birgalikda	solishtirish, baholash usullari	bilvosita, birgalikda, baholash usuli	nol`, mos kelish, almashtirish
75.	Savol	Qo`pol xatolik nima?			
	Javob	O`lchash vositasining	Bu xatolik	O`lchash	O`lchash

		noto'g'ri ishlatishda va o'lchash vositasini ishdan chiqishi tufayli yoki asbobning ko'rsatishini noto'g'ri kuzatishdan kelib chiqadi	ko'pincha o'zgaruvchan bo'lishi mumkin	vositalarida kerakli qismlari yetishmasligidan kelib chiqadigan xatolik hisoblanadi	asbobini ishlatishda hosil bo'ladigan xatolik
76.	Savol	Nisbiy xatolik formulasini toping?			
	Javob	$\beta_H = \frac{\Delta}{A_0} \cdot 100\%$	$\beta_H = \frac{\Delta}{A_x} \cdot 100\%$	$\beta_H = \frac{A_x}{A_0} \cdot 100\%$	$\beta_H = \frac{\Delta}{A_{x \max}} \cdot 100\%$
77.	Savol	O'lchash xatoligi bu:			
	Javob	o'lchash natijasining o'lchanayotgan kattalikni haqiqiy qiymatidan chetlashuvi;	kattalikning nominal qiymati;	asbobning aniq ko'rsatkichi;	haqiqiy o'lchanayotgan kattalik qiymatlari orasidagi farq;
78.	Savol	O'lchash vositalarini qiyoslash bo'yicha asosiy qoidalar qaysi davlat standartida belgilangan?			
	Javob	O'z DSt 8.003:2005	O'z DSt 8.007:2005	O'z DSt 8.010:2005	O'z TSh 8.010:2005
79.	Savol	Sertifikatlashtirish va metrologiya boshqarmasining tashabbusi bo'yicha xo'jalik sub'ektlarida ko'pi bilan bir ish kunida bo'lib, tekshiruv ishlarini o'tkazish uchun asos:			
	Javob	Muvofiqlashtiruvchi kengash bilan kelishilgan kvartal rejasi-grafigi	O'zstandart agentligi xati bo'yicha	Qayd qilingan tashkilot qarori bilan bilan	SMSITI xati bilan
80.	Savol	Davlat nazoratini o'tkazish uchun Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi buyrug'i qachon chiqariladi?			
	Javob	Davlat inspektorlari davlat nazorati sub'ektiga boradigan barcha hollarda	Kutilmagan holatlarda	Davlat inspektorining xususiy holatlarida	Bunday buyruq berilmaydi
81.	Savol	Davlat inspektorlari Tekshiruvlarni qayd etish kitobiga kachon yozuvlar yozishi kerak?			
	Javob	Tekshiruv boshlanishi oldidan	Tekshiruv tugaganda	Tekshirishda 3 kun ichida	Tekshirishdan 3 kun keyin
82.	Savol	Tekshiruvlarni qayd etish kitobi to'ldirilganidan keyin uni kim tasdiqlaydi?			
	Javob	Xo'jalik sub'ekti va tekshiruv rahbarlari	O'zstandart agentligi inspektori	SMSITI	O'zstandart agentligidagi ma'sul shaxs
83.	Savol	Davriy sinovlar natijalari davlat nazoratining dalolatnomasida qanday shaklda aks ettiriladi?			
	Javob	Faqat davriy sinovlarda tekshiriladigan me'yoriy hujjat ko'rsatkichlari bu sinovlarning bayonnomalaridan olinib, dalolatnomaga,	Faqat davriy sinovlarda tekshiriladigan	bayonnomalar dan olinadi	dalolatnomaga bayonnomaning rekvizitlarini ko'rsatib yoziladi

		bayonnomaning rekvizitlarini ko'rsatib yoziladi	me'yoriy hujjat ko'rsatkic hlari		
84.	Savol	Tekshirishlarni qayd etish kitobidagi qaysi grafalarni tekshirish rahbari to'latadi?			
	Javob	2-7	1-5	2-5	1-4
85.	Savol	O'lchanadigan kattalikning qanday qiymatlari bor?			
	Javob	Chinakam va haqiqiy qiymat	Haqiqiy qiymat	Tajribadan olingan qiymat	Chinakam qiymat
86.	Savol	Standartlar va xo'jalik sub`ektlarida o'lchashlar vositalari ustidan davlat nazorati va tekshiruvini o'tkazish muddatlari qanaqa amalga oshiriladi?			
	Javob	ko'pi bilan 30 kalendar kun	20 kundan kam bo'lmagan kalendar kunida	60 kalendar kunida olib boriladi	15 kalendar kunida olib boriladi
87.	Savol	Taqiqlanganligiga qaramay mahsulotni realizasiya qilganligi uchun nega mahsulot narxining 50 foizi miqdorida jarima qo'llaniladi?			
	Javob	Ehtimol kamchiliklar bartaraf etilgan va realizasiya qilingan mahsulot me'yoriy xujjatga mos bo'lgan	kamchilik iz va atrof muhitga zarar yetkazmay digan mahsulot	Kamchiliklar kelajakda bartaraf etiladigan hollarda	Kamchiliksiz bo'lsa
88.	Savol	To'lovning o'tkazib yuborilgan har kuni uchun jarima summasining qanday foizi olinadi?			
	Javob	0,2%	0,3%	0,1%	0,15%
89.	Savol	Davlat nazorati natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnomada quyidagi bo'limlar bo'lishi kerak:			
	Javob	Boshlang'ich malumotlar; me'yoriy hujjatga rioya qilishni tekshirish natijalari; me'yoriy hujjat talabalarining buzilishi sabablari; xulosalar	Boshlang'ich malumotlar	Boshlang'ich malumotlar; me'yoriy hujjatlar	tekshirish natijalari; me'yoriy hujjat talabalar
90.	Savol	Me'yoriy hujjatga mos kelmaydigan qishloq xo'jalik mahsulotini zagatovka qilish to'g'risidagi ma'lumotnomaga kim imzo qo'yadi?			
	Javob	Rahbar, bosh buxgalter	Bosh xisobchi	Tayyorlash, realizasiya va jo'natish bo'limi	Korxonah rahbari
91.	Savol	Eksport qilinadigan mahsulotga jo'natish uchun kim ruxsat beradi?			
	Javob	Davlat inspektori (ma'sul shaxs)	SMSITI direktri	Eksport bo'limi	O'zstandart agentligi direktori
92.	Savol	Mahsulotning namunalarini ajratib oluvchilar:			
	Javob	Davlat inspektori tekshiriladigan muassasaning lavozimli shaxslari ishtirokida	SMSITI xodimlari va	Mustaqil ravishda buyurtmachi	O'zstandart agentligi xat asosida mustaqil

		ajratib oladi	mansabdor shaxs		ravishda ruxsat berilganlar
93.	Savol	Korxonada tekshirish ishlarini TTB va zavod laboratoriyalarining xodimlari kimning ishtirokida bajaradi?			
	Javob	Davlat inspektorining ishtirokida	Korxonah rahbari	SMSITI rahbari	Tegishli muasassa rahbari
94.	Savol	Namunalarni ikki xissa miqdorda ajratib olishni rasmiylashtirish tartibi qanday?			
	Javob	Namunalarni ajratib olish alohida dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi	dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi	Arizachi xohishi bo'yicha rasmiylashtiriladi	Dalolatnoma rasmiylashtirilmaydi
95.	Savol	Elektr o'lchash asboblari qiyoslash vaqtida nimalar bo'lmasligi kerak?			
	Javob	chang iflos gaz va bug'lar	chang, ximikatlar	chang va qattiq moddalar	chang
96.	Savol	Barcha turdagi o'zgarma tok hisoblagichlarining sezgirlik ostonasi aniqlik klasslari bo'yicha qanaqa bo'ladi?			
	Javob	2%	10%	20 %	50%
97.	Savol	Normal element kuchlanish bo'lgichi, shunt, namunaviy o'lchov qarshiligi komplekti - o'zgarma tok potentsiometri o'lchash vositalarining qaysi turiga kiradi.			
	Javob	namunaviy	O'lchash qurilmasi	O'lchash o'zgartkichi	O'lchash vositasi
98.	Savol	O'lchashlar biriliginini ta'minlash va standartlar bo'yicha davlat nazorati va tekshiruvda qiyoslash natijalari bo'yicha qanday xolatlarda maxsus usullar kiritiladi?			
	Javob	ishlab chiqarishni to'xtatish imkoni mavjud bo'lmaganda va me'yoriy xujjatlarda tizimli bo'zishlar bo'lgan holatlarda	Ishlab chiqarish yoki jarayonlarga aloqador turli xolatlarda	Ma'suliyatli shaxs yo'qligi sababli	Maxsus usul qo'llanilmaydi
99.	Savol	Muvofiqlashtiruvchi kengashning ruxsatisiz takror tekshiruvlarni o'tkazish qanday hollarda ruxsat etiladi?			
	Javob	Xo'jalik subektlari avvalgi tekshiruv natijalari buyicha tuzilgan dalolatnoma va kursatmalarida ko'rsatilgan muddatlarda mrojaat qilganda.	Birlamchi qiyoslash o'tkazishda qo'pol bo'zishlar bo'lganda	Mahsulot me'yoriy xujjatlar bo'yicha tekshirilganda	O'z standart agentligi ma'sul shaxsi birlamchi qiyoslash o'tkazganda
100.	Savol	O'z RH 51-033:2001 davlat nazoratini amalga oshirishda:			
	Javob	O'z standart Agentligi tashkilotlari lavozimli shaxslari uchun mo'ljallangan	Faqat ma'sul shaxs	O'z standart Agentligi	SMS ITI